



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

604-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-oktabrdagi PF–162-son Farmoni ijrosi haqida”gi 515-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 17-oktabrdagi PF–162-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrda 515-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrda 515-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF–162-son Farmoni bilan: Vazirlar Mahkamasining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha respublika komissiyasini Migratsiya bo‘yicha respublika komissiyasi etib qayta nomlash va uning yangilangan tarkibini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlash;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatini tugatish hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligini (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tashkil etish;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasini Agentlikka o‘tkazish hamda uning negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Migratsiya jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma) tashkil etish;

quyidagilar:

Migratsiya agentligining asosiy faoliyat yo‘nalishlari 2-ilovaga muvofiq;

Migratsiya agentligining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Migratsiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari va uning mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari 4-ilovaga muvofiq;

Migratsiya agentligi mablag‘larini shakllantirish manbalari va uning mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Agentlik tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va mazkur sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

Agentlik Vazirlar Mahkamasi va Migratsiya bo‘yicha respublika komissiyasiga bevosita hisobdordir;

Agentlik Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining va Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasining huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanishi;

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga berilgan barcha soliq imtiyozlari Agentlik uchun saqlab qolinishi;

quyidagilar:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining xorijdagi mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan bog'liq vazifa va funksiyalari, xalqaro va idoralararo hujjatlardagi huquq va majburiyatlari;

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, uning hududiy filiallari, xorijdagi vakolatxona va vakillari hamda Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasining shtat birliklari, mablag'lari va mol-mulklari Agentlikka o'tkazilganligi;

Agentlikning (xorijdagi vakolatxona va vakillaridan tashqari) jami boshqaruv shtat birliklari soni 117 ta etib belgilanganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab:

Agentlikka xususiy bandlik agentliklari faoliyatini tekshirish bilan bog'liq nazorat tadbirlarini Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda o'tkazishga ruxsat etilganligi;

Agentlik zimmasiga u tomonidan o'tkazilgan har qanday tekshirish natijasi bo'yicha tuzilgan bayonnomalar, har bir tekshirilgan subyekt kesimida aniqlangan qonun buzilishi holatlari soni va xususiyati haqidagi ma'lumotlarni majburiy tartibda besh kun muddatda "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasiga joylashtirib borish majburiyati yuklanganligi;

belgilab qo'yilishicha, Agentlik direktori:

har olti oyda Agentlik va Jamg'arma faoliyati, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida amalga oshirilgan ishlar, tizimli muammolar va ularning yechimi to'g'risida Migratsiya bo'yicha respublika komissiyasiga hisobot beradi;

Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar ishini to'g'ri va samarali tashkil etish, faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, ushbu yo'nalishda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga so'zsiz va to'laqonli erishish uchun mas'ul hamda shaxsan javobgar hisoblanishi;

belgilanisha, Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari tashkilotlaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olishi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini hamda ekspertlarni, shu jumladan, shartnoma asosida jalb qilishi;

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda sohani takomillashtirishga doir tashabbuslar bilan chiqish va takliflar kiritishi;

Agentlik Toshkent shahri Olmazor tumani Qamarniso ko'chasi 1-uy manzilidagi bino va inshootlarda tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 6-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Migratsiya bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi – Migratsiya bo'yicha tuman komissiyasining ishchi organi hisoblanadi.

5. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov) tegishli idora va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmoni talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 30-oktabrdagi  
604-6-81-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Migratsiya bo'yicha tuman komissiyasi  
TARKIBI**

1.	A.Mansurov	-	Mingbuloq tumani hokimi, Tuman komissiyasi raisi
2.	Z.Axmadjonov	-	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi rahbari o'rinbosari
3.	Kelishuv asosida	-	Davlat Xafsizlik xizmati tuman bo'limi vakili
4.	D.Karimov	-	Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
5.	O.Qo'ldoshev	-	Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
6.	M.Mamasobirov	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i
7.	O.Qodirov	-	O'zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi rahbari o'rinbosari
8.	A.Yakubov	-	Kasaba uyushmalari muvofiqlashtirish Kengashi rahbari
9.	S.Egamberdiyev	-	Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi boshlig'i
10.	A.Jo'rayev	-	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi mutaxassisi, ishchi guruhi kotibi